

O‘ZBEKISTON SOLIQ STRATEGIYASI VA TAKTIKALARINI ISHLAB CHIQUISH HAMDA MEXANIZMLARINING TAHLILI

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi
huzuridagi Fiskal institut magistranti*

Abdiyev Jaxongir Ibragimovich

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimi samaradorligini ta'minlash haqida so'z boradi. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada soliq siyosatining mazmuni, uning strategiyasi va taktikasi hamda bugungi kunda O'zbekiston soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: soliq, soliq munosatlari, iqtisodiy siyosat, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat byudjeti, markazlashtirilgan pul fondlari, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

Kirish. Davlatning ichki moliyaviy siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liq. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va uning samaradorligi baholash o'ziga xos murakkab

jarayon bo'lib, uning yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan sanaladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishning amaliy holatini tahlil qilish asosida umumiy va alohida olingan ilmiy xulosalar chiqarish bu boradagi ayrim mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qilish bilan bir qatorda, ularning yechimlari bilan bog'liq ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, "soliq siyosati strategiyasi" atamasining zamonaviy talqini o'rta va uzoq muddatli prognozlarga asoslangan murakkab, keng ko'lamli jarayonlarni boshqarish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ular muayyan davlat tuzilmasi doirasida jamiyat hayotining turli jabhalarini qamrab oladi. Soliq siyosatining strategik asosi ichki va xalqaro miqyosda kuchayib borayotgan noaniqliklar sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi potensial xavflarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategik asos davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy maqsadlariga erishishning yangi va o'zaro manfaatli yo'llarini belgilashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu dinamik tashqi va ichki muhitdagi doimiy tebranishlarni hisobga olgan holda ayniqsa zarur bo'ladi. Strategiyani ishlab chiqish vazifalarni amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun ishlatiladigan bir qator tashkiliy harakatlar va boshqaruv yondashuvlarini o'z ichiga oladi. Qo'llash sohasini aniqlash, maqsadlarni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni aniqlash, maqsadga erishish usullarini aniqlash strategik rejani shakllantiradi. Missiya va ustuvorliklarni aniqlagandan, shuningdek, maqsad va vazifalarni shakllantirgandan so'ng, soliq strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi amalga oshirishning asosiy bosqichlari majmuini o'z ichiga oladi. Tashqi va ichki omillarni sinchkovlik bilan va har tomonlama tahlil qilib, kelishishdan o'tib va rivojlanish strategiyasining eng maqbul variantini tanlagandan so'ng, turli xil parametrlar va ko'rsatkichlar yordamida yuqori sifatli monitoring va samarali ijro nazoratini ta'minlash kerak. Belgilangan maqsadlarga

erishish monitoringi natijalarini baholash natijalariga ko'ra, taktik xarakterga, shuningdek parametrlar va ko'rsatkichlarga tegishli tuzatishlar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi soliq sohasidagi qonunchilik jarayonini boshqa davlatlar bilan solishtirilgan holda, o'rganilgan davlatlarga nisbatdan mamlakatimizdagi soliq sohasidagi qonunchilik jarayoni inklyuziv xarakterga ega bo'lib, keng ko'lamli tashabbuslarga va tashabbuskorlarga imkoniyat yaratib bermoqda. O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayoni O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 11-oktyabrdagi "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'RQ-60-son va 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son qonunlari bilan belgilanadi. O'zbekistonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish bilan Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi (*endilikda yagona jamlangan tarkibda Iqtisodiyot va moliya vazirligi shug'ullanadi*) va zarurat bo'yicha boshqa bir qator idoralarni jalb qilgan holda, ularning ko'rilayotgan masalalar sohalari hamda kiritilayotgan taklif va tashabbuslar asosida ijro etuvchi hokimiyatning iqtisodiy bloki shug'ullanadi. Soliq siyosati strategiyasini qonun hujjati loyihasi shaklida qonuniylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi buyrug'i (ro'yxat raqami 2352) bilan belgilangan uslubiyotga muvofiq amalga oshiriladi.


1-jadval

2017-2022-yillarda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish ko'rsatkichlari¹

¹ O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yillar	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari	Prezident Farmonlari	Prezident qarorlari	Vazirlar Mahkamasi qarorlari	Jami
JAMI	115	240	519	845	1719
2017	6	38	107	83	234
2018	10	40	97	125	272
2019	24	43	76	140	283
2020	21	39	59	164	283
2021	33	42	95	166	336
2022	21	38	85	167	311

Soliq islohotlari doirasida soliq me'yorlarining huquqiy asosini yaratish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni jilovlash orqali ularga teng raqobat sharoitini yaratish, investitsiya jozibadorligini oshirish va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarishga qaratilgan soliqqa oid temalar bog'liq 2017-2022-yilning 1-dekabr holatiga 121 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 240 ta Farmon va 519 ta qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 845 ta qarorlar qabul qilindi.



1-rasm. 2017-2022-yillarda soliq sohasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soni²

² O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda hukumatga hisobot beradigan mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 tagacha qisqartirildi. Shu bilan birga, vazirliklar soni 25 dan 21 gacha kamaydi va 12 ta idora butunlay tugatildi. Natijada, rivojlanayotgan landshaft ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro ta'sirida o'zaro nazorat va muvozanatning yangi tizimini vujudga keltirmoqda. Bu soliq siyosati strategiyasini amalga oshirish samaradorligini oshirishi mumkin bo'lsada, u muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Biroq, bu qiyinchiliklarning natijalari yuqori darajadagi shaffoflik va inklyuzivlikni o'rnatish bilan yakunlanishi kutilmoqda. Bunga erishish ushbu jarayonlarga barcha manfaatdor tomonlarni jalb qiladigan mustahkam qayta aloqa mexanizmini yaratishga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kelajakda soliq sohasidagi huquqiy hujjatlar sonining ko'payishi dinamikasini saqlab qolish soliq tizimining barqarorligini ta'minlashda ma'lum to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, hozirgi kunga qadar soliq sohasida qabul qilingan ko'plab NHH (normativ huquqiy hujjatlar) soliq sohalarini sezilarli darajada rivojlantirishga imkon berdi va shu bilan uning samaradorligini oshirish uchun asos bo'ldi. Boshqa tomondan, qonun hujjatlari sonining sezilarli darajada o'sishi munosabati bilan soliq sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni to'liq inventarizatsiya qilish asosida birlashtirish amaliyotini joriy etishning obyektiv zarurati paydo bo'ldi. Biroq, "Mannheim universiteti tomonidan o'tkazilgan German Internet Panel so'rovi natijalariga ko'ra, oddiy soliq to'lovchilar, asosan, mavjud soliq tizimini soddalashtirishni qo'llab-quvvatlaydilar, murakkab soliq tizimining ijobiy tomonlarini bilib, bunday soddalashtirishni qo'llab-quvvatlash darajasini pasaytiradilar. Bu shuni ko'rsatadiki, bilvosita odamlar soliq tizimining ma'lum bir murakkabligiga, agar u tabaqalashtirilgan yondashuvni nazarda tutsa va

fuqarolarning turli xil hayotiy sharoitlarini hisobga olsa, qarshi emaslar”³. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, soliq tizimini soddalashtirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ko‘pincha bunday soddalashtirishning mumkin bo‘lgan oqibatlarini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Soliq to‘lovchilarning bunday xabardorligi yo‘qligi ba’zan hukumatlarni populistik va natijada samarasiz soliq islohotlarini amalga oshirishga olib kelishi mumkin. Shu bois, ushbu masalalar bo‘yicha chuqur munozaralar olib borish, siyosiy, ijtimoiy va akademik muloqotlar orqali soliq savodxonligini oshirish juda muhimdir. Ushbu proaktiv yondashuv soliq qonunchiligi bilan bog‘liq muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqish hamda mexanizmlarining tahlili bo‘yicha amalga oshirgan ilmiy-nazariy hamda amaliy-tahlillarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, respublikamizda bu boradagi oxirgi besh yilda belgilab olingan strategik maqsadlar ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan hamda xorijiy ekspertlarning ijobiy xulosalarini tanqidiy ko‘rib chiqqan holda amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida soliq ma’murchiligi nuqtayi nazaridan ham davlat budjetining fiskal maqsadlari nuqtayi nazaridan ham ijobiy natijalarga erishishga imkon bermoqda. Soliq siyosati va strategiyasini takomillashtirish bo'yicha takliflar bilan chiqish uchun olimlar va amaliyotchilar bir nechta sohalarga e'tibor qaratishlari mumkin. Masalan, ular soliqqa rioya qilishni yaxshilash va soliqdan bo'yin tovlashni kamaytirish uchun texnologiya va ma'lumotlar tahlilidan foydalanishni o'rganishi yoki globallashtirish va transchegaraviy operatsiyalarning soliq siyosati va strategiyasiga ta'sirini o'rganishi mumkin. Bundan tashqari, ular soliq siyosatining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, masalan, kichik biznes, boshlang'ich korxonalar va transmilliy korporatsiyalarga ta'sirini o'rganishlari va soliq rejalashtirishni

³ Рябова И. Непростая справедливость. Электронный ресурс. <https://econs.online/articles/coffee-break/neprostayaspravedlivost/> (дата обращения 13.04.2023).

optimallashtirish va ushbu guruhlar uchun soliq risklarini minimallashtirish bo'yicha strategiyalarni taklif qilishlari mumkin.

Adabiyotlar:

X.B.Ismatov “Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish” dissertatsiyasi “IMPRESS MEDIA” MChJ bosmaxonasidan 2023 yil-111-141 betlar

Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики. // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 37-40. 5. Юрій С. І. Бюджетна системи України: Навч. посіб. / С. І. Юрій, Й. М. Бескид.– К.: НІОС, 2000.– С. 46.

Орешин В. П. Государственное регулирование национальной экономики (в вопросах и ответах): Учебн. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2001.– 124 с.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Тошкент: Фафур Гулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.

Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси маълумотлари.
www.soliq.uz.

Тошматов Ш. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008. –204б.